

YOQILG'I-ENERGETIKANI RIVOJLANTIRISHDA QUVUR TRANSPORTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

Kucharov Abror Sobirjonovich

TDIU professori

E-mail: abrork1967@gmail.com

Bobojonov Azizjon Babaxanovich

TDIU professori

E-mail: abobojonov@gmail.com

Ishmanova Dinora Nurmamad qizi

TDIU dotsenti, PhD

E-mail: dinarishmanova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatimizda neft-gaz korxonalarini boshqarishni takomillashtirish va shu tariqa tarmoq korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari tadqiq qilingan.

Kalit soʻzlar: neft-gaz korxonalari, raqobat, investitsiya, monopol tarmoqlar.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования управления нефтегазовыми предприятиями в Узбекистане, тем самым повышая эффективность предприятий отрасли.

Ключевые слова: нефтегазовые предприятия, конкуренция, инвестиции, монопольные отрасли.

Abstract

This article discusses the issues of improving the management of oil and gas enterprises in Uzbekistan, thereby increasing the efficiency of enterprises in the industry.

Key words: oil and gas enterprises, competition, investment, monopolistic industries.

KIRISH

Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII) davlatlarining ustuvor vazifasi elektr energiyasi, gaz, neft va neft mahsulotlarining umumiy bozorlarini yaratishdir. Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi Energetika va infratuzilma vazirligi tomonidan 2024-yilgi Energetika forumida “Energiya muloqoti: global muammolar va birgalikda yechimlar” yalpi sessiyasi ishtirokchilari bilan Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqida energetikaning yangi istiqbollari belgilab berilgan.

Oʻzbekistonda monopol tarmoqlarda davlat ulushini kamaytirishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilishi neft-gaz korxonalari infratuzilmasining sifat jihatidan

ijobiy tomonga o'zgarayotganini ko'rsatib beradi. Sababi, tarmoq korxonalariga jalb etilayotgan investitsiyalar korxonalarning infratuzilmasini yangilashga va moliyaviy holatini barqarorlashtirishga to'liq imkon yaratadi. Shu bois, hozirgi jadal islohotlar davrida neft-gaz korxonalari infratuzilmasini innovatsion boshqaruv mexanizmi bilan takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasida neft-gaz va yoqilg'i-energetika sohalarini rivojlantirish hamda energiya manbalarini muqobil energiya bilan diversifikatsiya qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon iqtisodiyot tarmoqlari va aholining energiya resurslariga tobora oshib borayotgan ehtiyojini qondirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Respublikaning Investitsiya dasturiga mazkur soha bo'yicha umumiy qiymati 27,8 milliard dollarlik 26 ta loyiha kiritilgan. Energetika va Moliya vazirliklariga "Sho'rtan gaz-kimyo majmuasining tozalangan metani negizida sintetik suyuq yoqilg'i (GTL) ishlab chiqarishni tashkil etish" loyihasi bo'yicha 2,3 milliard dollarlik xorijiy kreditlarning moliyalashtirish shartlarini belgilash, "Sho'rtan gaz-kimyo majmuasining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish" loyihasi bo'yicha "Gazprombank"ning 300 million dollarlik kreditini jalb qilish vazifasi yuklatildi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Sho'rtanneftgaz va Gazlineftgaz korxonalarida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish, neft va gaz qazib chiqarish, geologik qidiruv uskunalari sotib olish kabi loyihalarga talab etiladigan mablag'larni mamlakatimizning yevroobligatsiyalari hisobidan moliyalashtirish lozimligi ta'kidlandi. Shuningdek, geologik qidiruv ishlari murakkab bo'lgan hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlari yetarli darajada olib borilmayotgani qayd etildi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilish jarayonini jadallashtirish zarur. Suyultirilgan gaz bozorida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va uning importiga qo'yilgan bojlarni bekor qilish choralari ko'riladi¹ [1]

ADABIYOTLAR SHARHI

Neft-gaz korxonalarida iqtisodiy boshqaruv hamda innovatsion strategik boshqaruv mexanizmini takomillashtirish masalalari bo'yicha qator xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlar olib borgan.

Neft-gaz va energetika korxonalarida boshqarishni takomillashtirish, uning mazmuni va iqtisodiyotning boshqa sohalariga ta'sirini o'rgangan olimlar boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha turli xil fikrlarni bildirgan.

I. Ansoff, A. Chandler va G. Mintzberg kabi olimlarning rejalashtirish nazariyasiga ko'ra, strategiya strukturani ta'qib etar ekan, natija samarasiz bo'lib qolaveradi. A. Chandler fikriga ko'ra, strategiya korxonaning asosiy uzoq muddatli maqsad va vazifalarini belgilash, shuningdek, tadbirlar va resurslarni taqsimlash dasturini ishlab chiqish uchun zarur [2].

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi 30.12.2020 yil

Genri Mintzberg ta'kidlaganidek, "biz o'z harakatlarimizga qat'iy ishonganimizda, odatda yuqori natijalarga erishamiz". Unga ko'ra, korxona uchun strategiyaning muhim jihati shundaki, strategiyaning qabul qilish asosiy muammolari bartaraf etadi. Eng asosiysi, menejer bozor tanlash masalasiga uzoq vaqt sarflash o'rniga, batafsil ma'lumotlarga e'tibor qaratishi, aniq maqsadlarni belgilashi yoki mijozlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilishi kerak [3].

V. Kvint fikricha, strategik boshqaruv – bu korxona fundamental qiymatini shakllantirish yoki oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv tizimi bo'lib, u strategiyaning doktrinasini, unda belgilangan missiyalar, ustuvorliklar, maqsad va vazifalarga muvofiq ishlab chiqish hamda uning uzoq muddatli amalga oshirilishini o'z ichiga oladi [4].

R. Rumelt esa neft-gaz korxonalarida iqtisodiy boshqaruv hamda innovatsion strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqib, strategik boshqaruvning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etgan hamda ushbu konsepsiyani rivojlantirgan [5].

Neft-gaz sanoatining samaradorligi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari faoliyati bilan bevosita bog'liq. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va istiqbolda energiyaga bo'lgan talabning keskin oshishini inobatga oladigan bo'lsak, tarmoqni barqaror rivojlantirish bo'yicha islohotlarni jadallashtirish zarurati yanada ortadi.

Bugungi kunda O'zbekiston neft-gaz sanoati jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion jarayonlar keng joriy qilinayotgan iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, mamlakat investitsiya siyosatining maqsadi birinchi navbatda iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida innovatsion faollikni oshirish, ya'ni tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga ustuvorlik berishga asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasida neft-gaz korxonalari infratuzilmalarini boshqarishni takomillashtirish, ularni yangi texnologiyalarni joriy etish va modernizatsiya qilish orqali yuqori qiymatli tayyor mahsulot olish jarayonlarini o'rganish maqsadida ilmiy-tadqiqot faoliyati olib borildi. Ushbu tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

TAHLIL VA NATIJALAR


Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda tarmoqqa yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar 1,2 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, shundan 918 million dollari xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga to'g'ri keladi. Tahlil etilayotgan davrda sohaning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2,5 foiz bo'lib, o'zgarishsiz qolgan.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, neft-gaz sanoati sohasida ham qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "Neft-gaz sohasining boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-3107-son¹ qarori bilan "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv tizimi takomillashtirildi [2].

Tarmoqning eksport salohiyatini tahlil qilish natijasida, faqat gaz eksportiga bog'lanib qolmasdan, uglevodorodlarni chuqur qayta ishlash asosida eksport hajmini oshirish zarurligi masalaning muhim yechimlaridan biri ekanligi ta'kidlanadi. Monopol tarmoqlarni davlat tomonidan tartibga solish maqsadida tariflarni bozor tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish, neft bazalari va hududiy gaz ta'minoti xizmatlarini bosqichma-bosqich davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish, jumladan, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini investorlarning ishonchli boshqaruviga berish bo'yicha aniq choralar ko'rilishi kerakligi davlatimiz rahbari tomonidan ham ta'kidlandi.

Uglevodorod xom ashyosini qazib olishni oshirish bo'yicha 2021-yilgacha mo'ljallangan dastur va uni amalga oshirish mexanizmlari tasdiqlandi. 2017-yilda neft va gaz kondensati qazib olish hamda suyultirilgan gaz ishlab chiqarish bo'yicha belgilangan rejalar bajarilgan. Bu esa "O'ztransgaz" AJ infratuzilmasini takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi (1-jadval).



1-rasm. "O'ztransgaz" AJ infratuzilmalariga oid statistika (01.01.2023 yil)²

Joriy yil hisobidan "O'zbekneftgaz" AJ tarkibidagi tarmoq korxonalarining statistik ma'lumotlariga asoslanib tahlil etadigan bo'lsak, neft-gaz korxonalari infratuzilmalari quyidagicha taqsimlangan: Gaz haydash stansiyalari – 25 ta, Gaz haydash agregatlari – 252 ta, Gaz tarqatish stansiyalari – 393 ta, Gaz tarqatish punktlari – 101 317 ta, Magistral gaz quvurlari – 13 250,2 km, Yuqori bosimli gaz quvurlari – 13 736 km, O'rta bosimli gaz quvurlari – 31 651 km, Past bosimli gaz quvurlari – 85 203 km, Mavjud erkin gaz konlari – 210 ta, Neft konlari – 125 tani tashkil etadi.

Neft-gaz sanoatini innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish istiqbolda mamlakat neft-gaz sanoatining barqaror

¹ <https://lex.uz/docs/-3383378?ONDATE=18.06.2020%2000>

² "O'ztransgaz" AJ ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi

rivojlanishiga olib keladi. Natijada: Davlat byudjeti daromadlari va valyuta tushumlari keskin oshadi; Hududlarda zamonaviy sanoat korxonalari barpo etilib, qo‘shilgan qiymat yaratiladi; Yangi ish o‘rinlari tashkil etilishi orqali aholi turmush farovonligi yuksaladi.

Yuqorida keltirilgan neft-gaz sanoatini strategik boshqarish vazifalari va mexanizmlaridan kelib chiqqan holda, tarmoqni innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu konsepsiya xomashyo bazalarini jadal rivojlantirish asosida yangi neft va gaz qazib olish markazlarini (Ustyurt, Buxoro-Xiva, Hisor, Surxondaryo va Farg‘ona) shakllantirishga asoslanadi.

Jumladan, neft-gaz sanoati markazlari tabiiy neft-gaz xomashyosi klasterlari integratsiyasi, qidiruv, qazib olish, tashish va qayta ishlash jarayonlarida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali shakllantirilishi lozim. Bu esa ilmiy-texnik yutuqlarga erishish, barcha bo‘g‘inlarda yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Neft-gaz sanoatini innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasi rasmda tahlil qilinadigan bo‘lsa, unda asosiy maqsadni belgilash, strategik tahlil, innovatsion rivojlantirish strategiyasini shakllantirish omillari va innovatsion strategiya talablari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda ko‘rsatilgan.

Rossiya kompaniyalari O‘zbekiston bilan neft-gaz sohasida hamkorlik qilishdan manfaatdor. Bu haqda Rossiyaning O‘zbekistondagi savdo vakolatxonasi ma’lum qildi. Shu kunlarda Toshkentga “Gaz sanoatida yangi texnologiyalar” asbob-uskunalari ishlab chiqaruvchilar uyushmasining tashrifi bo‘lib o‘tmoqda. Ushbu uyushma 2012-yilda "Gazprom" OAJ ko‘magida tashkil etilgan bo‘lib, gaz sanoati uchun ilg‘or texnologiyalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Neft-gaz tarmog‘ida yillar davomida ko‘plab muammolar to‘planib qolgan. Zaxiralar yetarli darajada oshirilmagani sababli 2023-yilda tabiiy gaz qazib olish va neft mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha prognoz to‘liq bajarilmagan. Geologiya-qidiruv jarayonidagi burg‘ilash hajmi bo‘yicha prognoz atigi 77 foizga bajarilgan. Agar ushbu ishlar to‘liq amalga oshirilganida, zaxiralarni sezilarli darajada oshirish mumkin bo‘lar edi. Shuningdek: Ekspluatatsion burg‘ilash ishlari prognozi – 49 foiz, Qurilishi tugatilgan quduqlar soni prognozi – 53 foiz darajasida bajarilgan, xolos.

Tabiiy gaz qazish quvvatlarini modernizatsiya qilish va ta‘mirlash ishlari yetarli darajada olib borilmayotgani sababli, gaz qazib olishdan iste‘molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayonda tabiiy boylikning 6 foizi yo‘qotilmoqda.

Geologiya-qidiruv ishlari davlat dasturiga muvofiq, yangi konlar ochish orqali 2024-yilda tabiiy gaz zaxirasini 57 milliard kub metr ga, neft va kondensat zaxirasini 3,6 million tonnaga oshirish zarurligi ta’kidlandi. Joriy yilda: 63 milliard kub metr tabiiy gaz, 3 million tonna neft va kondensat qazib olishni ta’minlash uchun: 255 ta yangi quduq, 26 ta yangi texnologik obyektни qurish ishlari yakunlash, 76 ta quduqni kapital ta’mirdan chiqarish lozimligi qayd etildi.

"O'zbekneftgaz" AJ tomonidan 2 milliard 756 million dollarlik 24 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Ushbu mablag'lar quyidagi loyihalarga yo'naltiriladi: Jizzax neftni qayta ishlash zavodini bunyod etish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, Qandim gazni qayta ishlash kompleksining 2-navbati va Qandim konlar guruhini jihozlash, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish, Surxondaryodagi "Mustaqillikning 25 yilligi" konida qidiruv ishlarini olib borish va texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalarning yarmidan ko'pi neft-gaz sohasi hissasiga to'g'ri kelishini inobatga olib, sarflangan har bir dollar iqtisodiy foyda keltirishi zarurligini e'tiborga olish lozim.

Davlat manfaatlari nuqtayi nazaridan quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi: Mahsulot taqsimlash kelishuvlari va qo'shma korxonalar shartlarini qayta ko'rib chiqish; Neft-gaz korxonalarining logistika yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish; Xomashyo importi va mahsulot eksporti narxlarining arzonroq bo'lishini kafolatlaydigan transport yo'laklari va tariflarini belgilash.

Iste'molchilarga tabiiy gaz yetkazib berishda yo'qotishlarga yo'l qo'yilayotgani gaz taqsimlash tizimining eskirganidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida, neft-gaz korxonalari infratuzilmalarini modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu bois quyidagilarni amalga oshirish lozim: Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda yuqori va o'rta bosimli gaz taqsimot tizimini rivojlantirish; Avtotransport vositalarini gazga o'tkazish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish. AQSHning Epsilon Development kompaniyasi O'zbekistonda gaz qazib olishga 5,2 milliard dollarlik investitsiya kiritishi kutilmoqda. Avvalroq, Amerika kompaniyasi Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida sezilarli xarajat talab qiladigan hamda o'zlashtirish qiyin bo'lgan konlarda gaz qazib olishi haqida ma'lum qilgan edi. Kelgusi ikki yil ichida Qo'shma Shtatlar ushbu hududlardagi gaz konlarini o'zlashtirishga 2 milliard dollar sarmoya kiritmoqchi. So'nggi yillarda O'zbekistonga 11,8 milliard dollar investitsiya jalb etilgan bo'lib, ushbu miqdorning 73 foizi neft va gaz sektoriga yo'naltirilgan.

Shuningdek, neft-gaz korxonalarining iqtisodiy barqarorligi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish tamoyillariga asoslanishi lozim. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni nafaqat sarflangan zaxiralarni to'ldirish, balki ularning hajmini oshirish, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot qiymati va sifatini yaxshilash uchun yetarli darajadagi qo'shimcha qiymat yaratishni ta'minlashi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, har bir neft-gaz korxonasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash dasturini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dastur ko'p pog'onali tarkibiy tuzilishga ega bo'lishi hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlarini resurslar bilan bog'lab ishlab chiqish zarur. Neft-gaz korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash yo'llari davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalar orqali resurslar bilan ta'minlash va ushbu jarayonlarni o'zaro bog'langan holda amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan muhim iqtisodiy muammolardan biri tabiiy gazdan yoqilg'i sifatida emas, balki xomashyo sifatida foydalanish bilan bog'liq ekani qayd etildi. Shuningdek, tarmoq korxonalarida innovatsion boshqaruv

mexanizmini joriy etish orqali moliyaviy barqaror bo'lmagan korxonalarni iqtisodiy sog'lomlashtirish mumkinligi aniqlandi. Shu asosda quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan neft-gaz korxonalarining infratuzilmasini yaxshilash va shu bilan birga neft-gaz sohasiga, xususan, neft zaxiralarini qazib olish va ishlab chiqarish jarayoniga xususiy kapitalni jalb qilish zarur.

2. Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) tamoyillarini rivojlantirish orqali tarmoq infratuzilmalarini rivojlantirish hamda neft-gaz korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash taklif qilinmoqda.

Mamlakatimiz uchun strategik ahamiyat kasb etayotgan neft-gaz tarmog'ining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot yechimi sifatida quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

3. "O'zbekneftgaz" AJ tarkibidagi moliyaviy barqaror bo'lmagan neft-gaz korxonalari infratuzilmasini rivojlantirish uchun nafaqat xorijiy investorlari jalb etish, balki mahalliy tadbirkorlik subyektlari uchun ham raqobat muhitini shakllantirib, venchur fondlari orqali moliyalashtirish mexanizmini tatbiq etish.

4. Investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishda rivojlangan sanoatlashgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish lozim. Xususan, Koreya Respublikasining investitsiya siyosati tajribasi o'zining samaradorligi bilan ajralib turadi. Shu bois mamlakatimizda investitsiya siyosatining muhim ustuvorliklaridan biri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha uzoq muddatli loyihalar asosida ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan strategiyani ishlab chiqish bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi, 30-dekabr, 2020-yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati tizimida geologiya-qidiruv va qazib olish ishlari samaradorligi, yoqilg'i materiallari bilan ichki ehtiyojni ta'minlashning ahvoli, tizimdagi istiqbolli vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish. 25.01.2019-yil.

3. Ансофф И. Стратегическое управление. — М.: Экономика, 1989.

4. Генри Минцберг, Брюс Альстранд, Жозеф Лампель. Стратегическое сафари: Экскурсия по дебрям стратегического менеджмента; Пер. с англ. — М.: Альпина Паблишер, 2013. — 367 с.

5. В. Квинт. Стратегическое управление и экономика на глобальном формирующемся рынке. — М.: Бизнес-Атлас, 2012. — 627 с.

6. Румельт Р. Оценка бизнес-стратегии. Пер. с англ. — СПб.: Питер, 2001.

7. O'zbekiston Respublikasida neft-gaz, yoqilg'i-energetika sohalarini rivojlantirish va energiya manbalarini muqobil energiya bilan diversifikatsiya qilish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ilmiy jurnal, 2023-yil, 5-son.